



ZULFIYAXONIM SHE'RLARIDA BAHOR TAVSIFI

Sobirova Durdona

Ajiniyaz nimidagi nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining 1-bosqich talabasi
<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-56>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2023

Accepted: 23th February 2023

Online: 24th February 2023

KEY WORDS

*Bahor, Hamid Olimjon,
Zulfiyaxonim, she'r, tavsifi,
izohl, she'r ma'nosi.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Zulfiyaxonimning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri izohlab beriladi.

Zulfiyaxonim Isroilova o'zbek xalqining unitilmas, go'zal va latofat egasi bo'lgan shoiralari qatorida o'z o'rnini va beqiyos mavqeiya ega shoiralardan biridir. Uning hayot yo'liga bir nazar tashlaydigan bo'lsak, unda oddiy va samimiy bir qishloq qizining hayoti gavdalanadi. Hamma qatori qishloq hayotida o'sgan bu qiz hayotda ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazadi. Zulfiyaxonim Isroilova 1915- yil Toshkent shahrining qadimiy va go'zal Degrez mahallasida dunyoga keladi. Avvalo, boshlang'ich maktabda, so'ng esa Xotin- qizlar bilim yurtida taxsil olib voyaga yetadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, 1935-1938 yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti Asperanturasida ta'lim oladi. Umrining go'zal onlarida ko'plab jurnallarda faoliyat yuritadi. Shoiramiz 30 yil davomida "Saodat" jurnalining bosh muharriri bo'lib ish yuritadi. Zulfiyaxonimning umr yo'ldoshi, hayot qiyinchiliklarini birga baham ko'rgan yaqin insoni Hamid Olimjondir. 1944- yil mudhish voqea sodir bo'lib Hamid Olimjon mashina halokati tufayli dunyodan ko'z yumadi. Zulfiyaxonim bundan keyingi hayotini ham ijodga bag'ishlaydi. Izlanish va o'qishdan to'xtamaydi. Umr yo'ldoshini yo'qotishi bilan tushkinlikka tushib qolmaydi, hayot yana davom etishini o'ylab o'z ustida ishlay boshlaydi. Zulfiyaxonim ijodini juda yoshlik davridan boshlagan desak xato bo'lmaydi. Shoir ilk sherini 17 yoshida " Hayot varaqlari" deb nomlab chop ettiradi. Bu shundan dalolat berib turibdiki, shoir yoshlik paytlaridan she'r yozishga qiziqishini bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari Zulfiyaxonim bir nechta mukofotlar sohibasi hisoblanadi. Xalqaro "Nilufar" mukofoti egasi, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofotlari sohibasi. Zulfiyaning iste'dodi faqat yurtimizdagina emas jahon miqyosida ham e'tirof etilgan. Biz buni uning mukofotlari orqali bilib olishimiz mumkin. Xalq orasida "Sensiz", "Yurak", "Bahor keldi seni so'roqlab", " Oydinda", "O'g'lim sira bo'lmaydi urush ", nomli she'rlari mashhur. Shoir umr yo'ldoshi vafot etgandan keyin ko'plab mahzun she'rlar yozgan. Rus yozuvchilari ijodi bilan ham shug'ullanib bir necha asarlarni tarjima qilgan. Pushkin, Lermontov, Nekrasov va boshqa shoirlarining asarlaridan na'munalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning she'rlari tabiatga bolgan hayajonli sevgiga burkangan. Uning she'rlarida



tabiat och rangda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. Iqtidorli shoiramiz inson qalbining o'tkir bilimdoni bo'lib turli janrlarda qalam tebratgan.

Shoiraning she'rlari xalqimizda mashhurligi tasodifiy narsa emas, alabatta. U bolaligida olamga o'zgacha nazar bilan qarovchi, uning boshqalar ko'ra olmaydigan jihatlarni ko'ruvchi qizaloq ekanligi bilan o'zgachadir. Shoiraning " Bahor keldi seni so'roqlab" she'riga bir nazar tashlaylik:

Salqin saharlarda bodom gulida

Binafsha labida yerlarda bahor

Qushlarning parvozi yellarning nozi

Baxmal vodiylarda qirlarda bahor

shu misralar orqali boshlanuvchi bu she'rni yod olmagan o'quvchining o'zi bo'lmasa kerak. Agar e'tibor berib she'rni mazmunli va tushinib o'qisak u bahor haqidagina emas, balki mantiqiy ma'nosi umr yo'ldoshi Hamid Olimjonga borib taqaladi. She'rning har bir qatorida yashirin ma'no bor. Bu ma'noni anglab olish savodli o'quvchimizning o'ziga ham bog'liq. Demak, endi sherding ba'zi diqqatimizni tortadigan o'rinlarini aytib o'tadigan bo'lsak

Har uyg'onar kurtak hayot bergan kabi

Ko'zlaringga surtib o'parding uni

Ya'ni Hamid Olimjon bahorni intiqlik ila kutib olishi nazarda tutilgan. Bu she'r Olimjon vafotidan keyingi ilk bahorning kelishi haqida yozilgan, ya'ni bu bahorni shoiramiz yolg'iz kutib olgani aytilgan. Shu o'rinda aytish kerakki, u o'tmishini eslayabdi, bahor kelishi uni suyukli umr yo'ldoshi qanday qarshilashi haqida aytib o'tilgan. Go'yoki she'rda bahor kelib uni so'roqlagandek, uni izlagandek tuyilgan. She'rda Hamid Olimjonning o'rik gullarini yaxshi ko'rishini aytib o'tilgan. Bu she'rda ham bahor, ham o'tmish ham umr yo'ldoshi esga olinadi. She'riy parchalarga nazar tashlasak, uning juda ham sermazmunligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari she'r juda ham mahoratli tarzda yozilgan. Sherda bahor Olimjonni so'roqlab hattoki qishga murojat qilganligi yozilganini ko'ramiz. Uni izlab u yurgan yo'llardan qidirib chiqishi aytilgan. O'zi she'riyatda har bir she'rni yozish yozuvchidan juda katta mahorat talab qiladi. Zulfiyaxonim umr yo'ldoshi vafotidan keyin ko'pgina she'rlarini unga bag'ishlab, uni eslab, o'tmishga bir nazar tashlab yozganini ko'ramiz. U umri oxirigacha ijod qildi, hech vaqt mahzunlikka tushkunlikka tushib qolmadi. Yanada o'zini qo'lga olib ijod qilishda davom etdi. Uning sh'eriylari dunyo yuzini ko'rdi desak adashmaymiz. Bundan tashqari yana she'rga qaytadigan bo'lsak, uning mazmun mohiyati murakkab, bahor fasli kimga yoqmaydi deysiz hammaga ham bu fasl yoqadi, albatta. Hamid Olimjon ham fasllar ichida bahorni xush ko'rganligi shu sherda yaqqol ko'rinadi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, she'r Hamid Olimjonga atalganligini tushinib oldik. She'r ko'rinishi bahor haqida deyilsa, mazmun mohiyati shaxsga tegishlidir. She'rdagi ijodiylikni o'qish orqali buni tushinib olamiz. Bundan tashqari boshqa yozuvchilar ijodiy hayotida ham bahor masumi haqida she'rlar uchratamiz. Yana aytadigan bo'lsak, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga turli xislatlarga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish orqali shunga amin bo'ldikki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar yetishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yulduzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Shoira hammani o'yg'a soladigan barcha kishilarga daxldor bbo'lgan



holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Shoir bolaligini shunday eslaydi: "Otamni Isroil degrez derdilar, otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma payt olovga yo'ldosh kasbini xush ko'rar edim. Otamday mehnatkash, samimiy odam yo'q edi men uchun go'yo. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar tarqatishiga boqib hayratda qolar edim. Uning qo'llari chog' bo'lgan temirni istalgan shaklga solib inson uchun kerakli manbaga aylantirishga qodir edi. Men hali hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman. Ammo iloj orqali inson qalbiga kirish temirga ishlov berishdanda murakkabroq, yurakni chaqmoq kabi larzaga solish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi". Otasini shunday deya esga oladi shoir. U Onasini esdan chiqarib qo'ygani yo'q, uni ham tilga olib o'tadi, albatta. Onamning qancha-qancha qo'shiq va afsonalari, doston va ertaklarini bilishiga aqlim bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va ertaklar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etardi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir jahonni ko'zga keng ochuvchi insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostona hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol - onam uyg'otgan". Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza, samimiy. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, bahor haqidagi, hijron to'g'risidagi, tabiat haqidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga yoshlarga bo'lgan she'rlari aslo, eskirmaydi, har doim tariximizda saqlanib qolaveradi. Uning asarlarida hallollik, insoniy tuyg'ulari porloq yulduz kabi charaqlab turaveradi. Keyinchalik ham u yozgan ijod na'munalari saqlanib, keyingi avolga yetib borishiga va abatta, kelajak uchun xizmat qilishiga aminmiz. Chunki buyuk shoirimiz - Zulfiyxonim yozgan asalari o'lmas va umri boqiydir.

References:

1. 6- sinf darsligi. Zulfiya hayoti ijodi
2. O'zbek adabiyoti darsliklari.